

**BO‘LAJAK KIMYO O‘QITUVCHILARIDA KASBIY  
KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK-  
PSIXOLOGIK JIHLARI**

**U.M.Norqulov, D.A.Xamrayeva, D.U.Suvanova**

Sarof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Biokimyo instituti

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada pedagogka oliy ta’lim tizimi oldida ta’lim-tarbiya berish sohalariga yuqori malakali va chuqur bilimga ega bo‘lgan mutaxassislar yetkazib berish jarayonida oshirilishi lozim bo‘lgan ishlar to‘g‘risida fikrlar muhokoma qilingan.

**Tayanch so‘zlar:** kasbiy kompetensiya, kasbiy mahorat, o‘quv mashg‘uloti, zamonaviy ta’lim, pedagogik ta’sir ko‘rsatish, milliy qadriyatlar.

Bo‘lajak kimyo o‘qituvchisining rivojlantirish muammolarini hal etishda ma’lum qiyinchiliklar va ziddiyatlar mavjud. Ularni bartaraf qilish uchun pedagog faoliyati mohiyati, uning tarkibiy qismlari hamda shaxs faoliyatining tuzilishini puxta o‘rganish talab etiladi.

Bugungi kunda pedagogika oliy ta’lim tizimi oldida ta’lim-tarbiya berish sohalariga yuqori malakali va chuqur bilimga ega bo‘lgan mutaxassislar yetkazib berish masalasi dolzarb bo‘lib turibdi. Pedagogika oliy ta’lim muassasalarining professor-o‘qituvchilari tarkibi ta’limning to‘rtta shartini chuqur o‘zlashtirgan bo‘lishlari kerak, bular: o‘z fanini a’lo darajada bilish, egallagan kasbini jon-dilidan sevish va talabalarda fanlarga nisbatan qiziqish uyg‘ota olish, amaliy ishlarni hozirgi davr talablari asosida uyushtirish, chuqur bilimga ega bo‘lish kabilardir. Bular o‘z navbatida bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy mahoratini yanada yaxshilashga, ularni ijodiy fikrlovchi va tashabbuskor mutaxassislar qilib tarbiyalashga xizmat qiladi. Umumta’lim maktablari, o‘rta maxsus va professional ta’lim muassasalarida dars beradigan pedagog kadrlar yuqori saviyali bo‘lish bilan bir qatorda, yangi pedagogik texnologiyalarni to‘liq o‘zlashtirgan, zamonaviy bilim bera olish qobiliyati, kasbiy ko‘nikma va malakalarni shakllantira olish mahoratiga ega bo‘lishlari lozimligi ta’kidlab o‘tilgan.

Bo‘lajak kimyo o‘qituvchilarining gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy, matematika va tabiiy fanlar hamda umumkasbiy fanlarni uzviy aloqada o‘rganishlari talabalarning bevosita kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim omil bo‘lib xizmat kiladi. Shu ma’noda, har bir mutaxassislik fanidan ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlarni olib borish jarayonida mutaxassislik tushunchalarining o‘rni, uni

bayon qilish zaruriyati, ketma-ketligi, boshqa tushunchalar bilan aloqadorligi hamda bu aloqadorlikni reflektiv (refleks, beixtiyor), simmetrik yoki tranzitivlik (dars jarayonida olingan bilimlar majmuini amalda o'z o'rnida qo'llay olishi) kabi boshqa xossalarga bo'ysunishiga qarab, har bir tushunchalarning o'zini qanday salohiyati bilan qatnashayotganini aniqlash imkoniyatiga ega bo'lamiz.

Bugungi kunda an'anaviy ta'limda ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarning har bir o'quv fani boshqa o'quv fanlariga bog'liq holda olib borilishi talabalarda bilimlarning integrativ tarzda yuzaga kelishiga o'zining ta'sirini ko'rsatib kelmoqda. Bu esa talabalarda ijodiy fikrlash jarayoni imkoniyatining sustlashishiga sababchi bo'lishi tajribada kuzatilgan.

Pedagogika oliy ta'lim muassasalarida beriladigan mutaxassisliklar fanlari o'zida asosan faqat ma'lumot beruvchi, o'rgatuvchilik funksiyasi bilan chegaralanib qolmasdan fikrni rivojlantiruvchi, integrallashtiruvchi, tarbiyalovchi funksiyalariga ham egadir. Bundan ko'rinib turibdiki, har bir fan o'qituvchisiga bo'lajak kimyo o'qituvchilarini nafaqat shu fan tuzilmasida mavjud bo'lgan ilmiy ma'lumotlar bilan qurollantirish, balki ular egallagan ilmiy tushunchalarni rivojlantirish va boshqa tushunchalar bilan integrallashuvini ta'minlash hamda bo'lajak kimyo o'qituvchilarini milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash vazifalari ham qo'yilgan. Shuning uchun ham har bir pedagog-olim navbatdagi o'quv mashg'ulotiga tayyorgarlik ko'rishida o'quv materialini yuqorida sanab o'tilgan talablar va tamoyillarga rioya qilgan holda tanlashi va uni bo'lajak kimyo o'qituvchilari e'tiboriga havola qilishida tegishli tushunchalardan unumli foydalanishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Bo'lajak kimyo o'qituvchining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish uning jamiyatdagi o'rnini, pedagogika oliy ta'lim muassasalaridagi majburiyati va vazifalariga hamda individual qobiliyatlariga bog'liq bo'ladi. Zamonaviy ta'lim tizimida shaxsni faqat pedagogik ta'sir ko'rsatish ob'ekti sifatida emas, balki bilim olish sub'ekti sifatida qaralishini, uning tahsil oluvchi sifatida o'z imkoniyatlarini yuzaga chiqarishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratilishini shart qilib qo'yadi. Bu esa pedagogika oliy ta'lim tizimi oldiga umumta'lim va kasb-hunar maktablari, o'rta maxsus hamda professional ta'lim tizimlari uchun bilimli, o'z fanining barcha qirralarini mukammal egallagan, yangi pedagogik texnologiyalardan ma'lumotga ega, kompyuter savodxonligi shakllangan, xorijiy tillarni o'zlashtirgan, kasbiy kompetensiyasi rivojlangan fan o'qituvchilarini tayyorlashdek, dolzarb vazifalarini qo'ydi.

Kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish uchun Davlat ta'lim standartlarida kimyo o'qituvchilarini tayyorlashga qo'yilgan talablardan o'qituvchilarni tayyorlash sifat va samaradorligini oshirishning quyidagi asosiy bosqichlarini keltirish mumkin:

- bo'lajak o'qituvchilarda shunday bilimlar tizimini tarkib toptirish kerakki, u bir vaqtning o'zida ijodiy va pedagogik jihatdan zamon talablariga javob beradigan kasbiy savodxonlikni ta'minlash;
- bo'lajak o'qituvchining istiqboldagi faoliyati uchun zarur bo'lgan bilim va kasbiy ish-harakat usullari, shaxsiy fazilatlarini tarkib toptirish;
- ilgari noma'lum bo'lgan shart-sharoit va favquloddagi vaziyatlarda to'g'ri xulosa chiqarish uchun mustaqil fikr yuritishga o'rgatish;
- bo'lajak o'qituvchilarni imkon qadar mustaqil ishlarga yo'naltiruvchi ilmiy-tadqiqot ishlariga jalb etish. Referat, kurs ishi yozish asosida bitiruv malakaviy ishlarini bajarishga o'rgatish.

Yuqoridagilarni amalga oshirishda quyidagilarga e'tibor qaratilishi lozim:

- umumta'lim va kasb-hunar maktablari hamda professional ta'lim muassasalarida turli pedagogik vazifalarni bajara oladigan o'quv-tarbiyaviy jarayon rahbarlarini tayyorlash;
- kimyo muammolari bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borishga layoqatli ilmiy-pedagogik kadrlarni yetishtirish.

Kimyo ta'lim yo'nalishi o'quv rejasiga kiritilgan majburiy va tanlov fanlarining mazmuni tahlil qilib chiqilganda, shu narsa ma'lum bo'ldiki, bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish uchun kiritilgan fanlar talabani nafaqat kasbiy bilim, ko'nikma va malakalari, kasbiy mahoratini o'stirish, balki uning dunyoqarashini ham har tomonlama kengaytirish ko'zda tutilgan. Shuni ta'kidlash lozimki, umumta'lim maktablari hamda har qanday yo'nalishdagi kasb-hunar maktablari, o'rta maxsus va professional ta'lim muassasalari uchun tayyorlanadigan pedagogik kadrlar majburiy va tanlov fanlardan kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishi lozim.

Sababi, ushbu blokni tashkil etuvchi fanlar kimyo ta'lim yo'nalishini chuqur o'rganishga yo'naltirilgandir. Bu yo'nalish bo'yicha tanlanadigan fanlar bo'lajak yosh mutaxassisning ixtisoslik fanlari bo'yicha olgan bilimlarini yanada chuqurlashtiradi. Shuning uchun ular orasida o'zaro aloqadorlik asoslarini o'rganilishi lozim.

Pedagogika oliy ta'lim muassasalarida davlat ta'lim standartida ta'lim dasturlarining mazmuniga nisbatan qo'yiluvchi talablar mohiyati va yo'nalishiga ko'ra ikkita blokka ajratilgan hamda har bir blokka kiruvchi fanlarning qisqacha mazmuni, shu bilan birga, o'quv va pedagogik amaliyotlar mazmuni yoritib berilgan. Mutaxassislik fanlari o'qitiladigan kafedralar ta'lim-tarbiya jarayonining mazmuni umumta'lim, o'rta maxsus, professional ta'lim, umumkasbiy va maxsus fanlarning vazifalari hamda mazmuniga muvofiq holga keltirilishi lozim.

### **ADABIYOTLAR**

1. Ўзбек педагогикаси тарихи. // А.Зуннунов таҳрири остида. - Т.: Ўқитувчи, 1997. - 272 б.
2. Ғозиев Э. Ўқувчиларнинг ўқув фаолиятини бошқариш. Т.: - “Ўқитувчи”, 1984. - 104 б.
3. Атаева Н., Расулова Ф., Хасанов С. Умумий педагогика. 1-китоб – Т., 2011.
4. Атаева Н., Салаева М., Хасанов С. Умумий педагогика. 2-китоб – Т. 2011.
5. Мавлонова Р. ва бошқалар. Педагогика. Дарслик. – Т., 2001.
6. Педагогика. (М.Тўхтаходжаеванинг умумий таҳрири остида). Дарслик – Т., 2010.
7. Педагогика. (А.Мунавваровнинг умумий таҳрири остида). Ўқув қўлланма – Т., 1996.